

**ZAMONAVIY TEATR BEZAGI RANGTASVIRIDA YANGI TEXNOLOGIYALAR,  
INTERAKTIVLIK, MINIMALIZM VA EKOLOGIK YONDASHUVLARNING  
INTEGRATSİYASI****Kenjayev San'at Obidovich**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

“Teatr bezagi rangtasviri” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15002401>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy teatr bezagi rangtasvirida yangi texnologiyalar, interaktivlik, minimalizm va ekologik yondashuvlarning integratsiyasidan foyalanish sahnani yanada boyitib berishi, tomoshabinga yangi tajriba taqdim eta olishi haqida ma'lumotlar keltirildi. Shuningdek, bu tendensiyalar teatr rassomlariga o‘z asarlarini yanada ilg‘or va ko‘proq ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatlardan ko‘proq yoritish imkonini qanchalik yaratib bera olishi o‘ganib chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** Zamonaviy teatr bezagi rangtasviri, yangi texnologiyalar, interaktivlik, minimalizm, ekologik yondashuvlar integratsiyasi.

**ИНТЕГРАЦИЯ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ, ИНТЕРАКТИВНОСТИ,  
МИНИМАЛИЗМА И ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В СОВРЕМЕННОЙ  
ТЕАТРАЛЬНОЙ ДЕКОРАТИВНОЙ ЖИВОПИСИ**

**Аннотация.** В этой статье была представлена информация о том, что использование интеграции новых технологий, интерактивности, минимализма и экологических подходов в современной театральной декоративной живописи может сделать сцену богаче, предлагая зрителю новые впечатления. Также было подчеркнуто, насколько эти тенденции могут позволить театральным артистам освещать свои работы более прогрессивно и с большей социальной, культурной и экологической точек зрения.

**Ключевые слова:** Современная театральная декоративная живопись, интеграция новых технологий, интерактивность, минимализм, экологические подходы.

**INTEGRATION OF NEW TECHNOLOGIES, INTERACTIVITY, MINIMALISM AND  
ENVIRONMENTAL APPROACHES IN THE PAINTING OF MODERN THEATER  
DECORATION**

**Abstract.** This article provided information that using the integration of new technologies, interactivity, minimalism and environmental approaches in modern theatrical decorative painting can make the stage richer, offering the viewer new experiences. It was also emphasized how these trends can allow theater artists to cover their work more progressively and from a greater social, cultural and environmental point of view.

**Keywords:** Modern theater decoration painting, integration of new technologies, interactivity, minimalism, environmental approaches.

Zamonaviy teatr bezagi rangtasvirida yangi texnologiyalar, interaktivlik, minimalizm va ekologik yondashuvlarning integratsiyasi haqida so‘z borar ekan avvalo teatr bezagi rangtasviri haqida umumiy ma’lumotlar berib o‘tishimiz o‘rinli. Teatr bezagi rangtasviri bu teatr sahnasi uchun yaratilgan dekorativ san’at asari bo‘lib, sahna ko‘rinishlarini, manzaralarni va atmosfera yaratishda ishlatiladigan rangtasvirning bir turi hisoblanadi. Teatr san’ati va rangtasvir bir-birini to‘ldirgan holda, spektaklning mazmunini, ruhini va xarakterlarini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Rangtasvirning teatr bezagi sifatidagi ahamiyati shundaki, u tomoshabinning e’tiborini sahna voqealariga qaratish, xarakterlarning psixologiyasini yoritish, voqealar o‘tkaziladigan muhitni yaratish uchun zarur vosita hisoblanadi. Teatr bezagi rangtasvirining asosiy maqsadi sahnani bezash, spektaklning g‘oyasini va atmosferasini ko‘rsatishdir. Bu rangtasvirda esa quyidagi xususiyatlar mavjud:

*Ko‘p o‘lchamli ifoda:* Teatr bezagi rangtasvirida rassom kichik o‘lchamdagи esklizlardan katta hajmdagi sahna bezaklariga o‘tadi. Bunda katta ko‘lamli ranglar va shakllar qo‘llaniladi, chunki sahna tomoshabinlar tomonidan uzoq masofadan ko‘riladi.

*Badiiy va dramatik yondashuv:* Teatr bezagi rangtasvirida har bir detali va rangning badiiy va dramatik ifodasi muhim ahamiyatga ega. Sahna bezaklari spektaklning mazmuni va janriga mos bo‘lishi kerak. Masalan, dramatik asarlarda qorong‘u ranglar, kontrastlar va keskin shakllar ishlatilsa, komedik sahnalarda yengil va yorqin ranglar qo‘llaniladi.

*Funktionallik:* Rangtasvir nafaqat estetik, balki amaliy jihatdan ham funktional bo‘lishi kerak. Sahna bezagi va rangtasvir tomoshabinlarni uzoq masofadan qiziqtirishi va ular sahnada bo‘layotgan voqealarni yaxshi anglab olishlari uchun aniq va yaxshi ko‘rinadigan bo‘lishi zarur.

*Ranglar va yorug‘lik:* Teatr bezagi rangtasvirida ranglar va yoritishning o‘rni juda katta.

Ranglar voqeining ruhini, xarakterlarning kayfiyatini va atmosfera yaratilishini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, qorong‘u va sovuq ranglar drama va g‘azabni ifodalasa, yorqin va iliq ranglar sevgi va baxtni aks ettiradi.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ldiki, teatr bezagi rangtasviri teatr san’atining ajralmas qismidir. U sahna voqealarini aniq va dramatik tarzda ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Rangtasvir orqali teatr san’ati tomoshabinga voqealar, muhit va xarakterlarning ruhiyatini tushunishga yordam beradi. Zamonaviy yondashuvlar esa teatr bezagini imkoniyatlarini kengaytirib, ko‘proq interaktiv va texnologik jihatdan rivojlangan tajribalarni yaratishga imkon bermoqda.

Yillar sayin zamonaviy teatr bezagi rangtasvirida ham ko‘plab yangi tendensiyalar va texnologiyalar paydo bo‘la boshladi. Bu tendensiyalar sahna san’atini yangi bosqichga olib chiqdi va sahna dekoratsiyasi rassomlariga o‘z asarlarini yaratishda yanada keng imkoniyatlar berdi.

Bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

### Raqamli texnologiyalar

Zamonaviy teatrda raqamli texnologiyalar va 3D modellash texnikalari teatr bezagining yangi darajaga chiqishiga yordam berib kelmoqda. Bu texnologiyalar yordamida sahna dekorator rassomlari sahna bezaklarini ancha murakkab va dinamik tarzda yaratish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Raqamli texnologiyalar quyidagilardan iborat:

*3D Proyeksiyalar va Video Mapping:* Video mapping texnologiyasi yordamida sahnada turli tasvirlar va harakatlanuvchi obrazlar yaratish mumkin. Bu texnologiya sahnadagi an’anaviy dekoratsiyalarni yangi, futuristik va ajoyib ko‘rinishda namoyish etish imkonini beradi. Masalan, ularning yordamida sahna yuzasiga 3D animatsiyalarni yoritish, ob’ektlarni o‘zgartirish va voqealarni o‘zgaruvchan makonlarda aks ettirish mumkin.



*Raqamli ekranlar va LED texnologiyalari:* Raqamli ekranlar va LED panellari yordamida teatr sahnalariga ko‘proq o‘lcham, rang va dinamiklik qo‘shish mumkin. Bu texnologiyalar orqali sahnaga jonli obrazlar va muhitlarni, o‘zgaruvchan manzaralarni kiritish osonlashadi.

### Interaktiv sahna dekoratsiyasi

Zamonaviy teatr bezagi rangtasvirida interaktiv elementlar keng tarqalgan bo‘lib, bu yondashuv tomoshabinlar va sahna o‘rtasidagi chegarani kamaytiradi, ular sahnaga bevosita ta’sir ko‘rsatishi yoki voqealiga rivojiga interaktiv tarzda qo‘shilishi mumkin.

*Tomoshabin bilan aloqada bo‘lish:* Interaktiv dekoratsiya yordamida tomoshabinlar sahna voqealariga bevosita aralashadi. Masalan, sahnada tomoshabinlar tomonidan boshqariladigan elementlar ya’ni tugmalar, sensorlar orqali spektaklning yo‘nalishini o‘zgartirish mumkin.

*Raqamli sahna dekoratsiyasida tomoshabinlarning ishtiroki:* Ba’zi zamonaviy teatr asarlarida tomoshabinlar mobil qurilmalar yoki interaktiv ekranlar yordamida sahnaga ta’sir qilishlari mumkin. Bu interaktivlik teatrni tomoshabinlar uchun yanada jonli va o‘ziga tortuvchi qiladi.

### **Minimalizm va Abstraktsiya**

Zamonaviy teatr bezagi rangtasvirida minimalizm va abstrakt dekoratsiyalar ko‘proq ishlatilmoqda. Ushbu uslublar orqali sahna bezaklari juda soddalashtirilgan, ammo chuqur ma’no va ifoda bilan boyitilgan bo‘ladi.

Sahna bezaklarida kamroq, lekin aniq va maqsadga yo‘naltirilgan elementlar ishlatiladi.

Bu uslub dekoratsiyalarning qisqa, aniq va juda toza bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, bunday yondashuv sahna uchun yanada keng va ochiq muhit yaratadi.

Abstrakt rangtasvirlar sahnada harakatlarni va voqealarni o‘zgartirigan holda, tomoshabinlarga o‘z fikrini ifodalashda ko‘proq erkinlik beradi. Bu uslub, ayniqsa, psixologik dramalarda va tajribaviy asarlarda keng qo‘llaniladi.

### **Ekologik va barqaror dizayn**

Zamonaviy teatr bezagi rangtasvirida ekologik va barqarorlikni ta’minalashga qaratilgan yondashuvlar ko‘paymoqda. Ushbu tendensiya teatr dizaynida ekologik jihatdan toza va qayta ishlanadigan materiallar qo‘llanishi, shuningdek, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga qaratilgan. Masalan, yog‘och, metallar yoki plastiklarni qayta ishlash orqali sahna bezaklari yaratiladi.

Tabiiy materiallar va ekologik elementlar, masalan, yashil o‘simliklar, daraxtlar va ekotizimlarni tasvirlash sahna dizayniga yangi yondashuv kiritadi. Bu nafaqat ekologik jihatdan to‘g‘ri bo‘lib, balki sahnada jonli va haqiqiy muhitni yaratishda yordam beradi.

### **Ko‘p qavatli va dinamik sahna bezagi**

Zamonaviy teatr bezagida ko‘p qavatli sahnalar va dinamik tuzilmalar ishlatilmoqda.

Bunday sahna dekoratsiyalarida qatlamlı strukturalar, harakatlanuvchi sahna qismlari va o‘zgaruvchan joylar ko‘rinadi. Sahnada joylashgan turli elementlar harakatlantiriladi, ular orasida mexanik, avtomatik yoki inson tomonidan boshqariladigan qismlar bo‘lishi mumkin.

Bu sahnaga dinamiklik va o‘zgaruvchanlik qo‘sadi. Modulli sahna dekoratsiyasi sahnada turli qismlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘lanib ishlaydi va doimiy ravishda o‘zgaradi. Bu uslub sahnadagi harakatlarni, voqealarni va xarakterlarni samarali tarzda aks ettirishga imkon beradi.



### **Teatrdagi multimedia va grafikalar**

Zamonaviy teatr bezagida grafikalar va multimedia elementlar ham muhim o‘rin tutadi.

Video, animatsiyalar, raqamli rasmlar va boshqa audiovizual texnologiyalar sahma bezaklarining bir qismiga aylangan.

*Teatr va video san’ati:* Video proyeksiyalar sahnada harakatlanuvchi fonlarni yaratish uchun ishlatiladi, bu sahna atmosferasini va voqealar rivojini yanada kuchaytiradi.

*Multimedia sahna dizayni:* Multimedia elementlari, jumladan, video, musiqalar, audio effektlar va real vaqtida o‘zgargan tasvirlar, sahna dekoratsiyalarini boyitadi va tomoshabinni yanada o‘ziga jalb qiladi.



Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy teatr bezagi rangtasvirida yangi texnologiyalar, interaktivlik, minimalizm va ekologik yondashuvlarning integratsiyasi sahnani yanada boyitib, tomoshabinga yangi tajriba taqdim etadi. Bu tendensiyalar teatr rassomlariga o‘z asarlarini yanada ilg‘or va ko‘proq ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatlardan ko‘proq yoritish imkonini beradi. Teatr bezagini o‘zgarishi bilan san’atning boshqa sohalari ham yangi bosqichga o‘tmoxda va tomoshabinlarni yanada chuqurroq va kengroq o‘ylashga undamoqda.

**REFERENCES**

1. Березкин В. И. Искусство сценографии мирового театра. М., 1997. Кн. 1–2.
2. Fohr R. Du décor à la scénographie. Montpellier, 2014.
3. Lori R. Scenografia e scenotecnica per il teatro. Roma, 2014.
4. qizi Zarifova, D. O. (2023). RANGLARNING FAZOVİY BIRİKMALARI VA XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 159-162.
5. Zarifova, D. (2023). TEACHING TECHNOLOGY OF THE TOPIC OF PORTRAIT OF THE HUMAN HEAD IN PAINTING. Modern Science and Research, 2(10), 391-393.
6. <https://www.baby.ru/wiki/vidy-zhivopisi/>
7. [https://artchive.ru/art\\_forms/theater\\_design](https://artchive.ru/art_forms/theater_design)